



**XIX ASR OXIRI XX ASR BOSHLARIDA VOHA AYOLLARI AN'ANAVIY
LIBOSLARINING ETNOGRAFIK TAHLILI (BUXORO VOHASI
MISOLIDA)**

G'iyosova Zarina Yusuf qizi

Termiz Davlat Universiteti

Tayanch doktoranti

Annotatsiya

XIX asr oxiri- XX asr boshlarida Respublikamizning o'ziga xos tarixiy-etnografik mintaqalaridan biri bo'lgan Buxoro vohasi o'zbeklarining an'anaviy kiyimlari ham o'ziga xos ko'rinishda shakllandi, kiyimlar majmuida turli etnik guruhlarga xos ko'rinishlar ham saqlangan bo'lib, bu mintaqadagi barcha etnik guruhlarning kiyinish madaniyatidagi farqli jihatlarni ko'rsatadi. Albatta, bunday ko'rinishlar bu davrdagi voha aholisining an'anaviy kiyimlarini tahlil qilishni taqozo etadi. Ushbu maqolada Buxoro vohasi misolida ayollarining an'anaviy liboslari qanday ko'rinishda bo'lgani, qanday matolardan, bezaklardan, ranglardan foydalanilgani, hamda bular qanday ramziy ma'nolarni ifoda etganligini o'rganishga ahamiyat qaratildi. Liboslar kishining jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, jamiyatda tutgan o'rni, mavqei haqida ma'lumot berib turadi.

Kalit so'zlar: shoyi, kurta, peshkurta, salla, dastor, chalma, munisak, paranji, chopon.

Buxoro vohasi ayollar kiyimlari boshqa o'zining yorqin ranglari va bezakdorligi bilan ajralib turgan. Voha ayollarining liboslari boshqa hududlarga nisbatan bashang va ko'p qavatli bo'lgan. Ayollar an'anaviy libosi ko'ylak, lozim, ustki kiyimlar : munisak, paranji chopon, bosh kiyim va poyabzaldan iborat bo'lib, kundalik va to'y-marosimlarda kiyiladigan liboslar tikilishi jihatidan bir xil bo'lgan. Ular orasidagi birdan bir farq marosim kiyimlarining rangi, matosi va bezakdorligida edi. Ayollar o'zlariga libos tanlashda albatta, matoning rangiga ahamiyat berishgan. Qizlar ko'proq qizil rangli matolardan tikilgan liboslarni yoqtirishgan. Ko'pgina xalqlarda qizil rang muhabbat va xursandchilik ramzi sanaladi. O'rta Yashar ayollarga ko'k tusdagi matolardan tikilgan liboslar xos bo'lgan. Keksa ayollar esa, ko'k -yashil, oq



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfseries.com

28th February, 2025

rangli liboslarni ma'qul ko'rishgan. Ayollar choponlarining o'ziga xos turlari mavjud bo'lib, bular kaltacha va paranji hisoblangan. Barcha yoshdagi ayollar uchun xos bo'lgan ko'ylak kurta bo'lib, kiftaki kurta qizlar ko'ylagi, uning yoqasi gorizontol ko'rinishda va kurtayi peshkusho esa turmushga chiqqan ayollar ko'ylagi bo'lgan. Ayollar bir vaqtning o'zida bir nechta qavat ko'ylakni ustma-ust kiyishlari mumkin bo'lgan. Bu esa o'z navbatida ayol moddiy ahvolining holatini bildirib turgan. Ammo ayollar oq va rang-barang shoyidan tikilgan ichki ko'ylakni hamda, zarbof, baxmal kabi matolardan tikilgan tashqi ko'ylakni albatta kiyishlari shart edi. Ayollar ko'ylagi o'zining keng bichimi, yenglari bilan ajralib turgan. Ko'ylak yenglari, odatda, keng, uzun va to'g'ri burchak shaklida tikilgan. Jumladan, marosim va ichki ko'ylak yenglari uzun, hatto uch metrgacha bo'lib, yorqin rangli kashtalar bilan bezak berilgan. Ko'ylaklarning uzunligi to'piqqacha bo'lib, oyoq kiyim ko'rinishda turgan. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, ayollar ichki ko'ylagining yoqa qismida o'zgarishlar uchraydi. . Ayollar ko'ylak bilan birga lozim yoki poychomalar kiyishgan. Ular bichimi erkaklar shimiga o'xshash bo'lib, matosi va bezagi bilan butunlay farq qilgan. Poychoma chetlarini zex va jiyak bilan bezak berib tikilgan. Odatda, lozimning yuqori qismiga oddiy mato, pastki qismi esa qimmatbaho matolardan tikilgan. Lozim uchun shoyi, parcha kabi matolardan ishlatilgan Ayollar ustki kiyimlaridan biri chopon bo'lgan. Choponning turlari har xil bo'lib, aynan ayollarga xos bo'lgani kaltacha va paranji hisoblangan. Bunday ustki kiyimlar turli xil matolardan, jumladan, abrband shoyidan,duxoba va parchadan tikilgan. Ustki kiyimlar matosi ham tabaqa darajasiga qarab tanlangan. Oddiy ayollarning ustki kiyimlari adrasdan tikilgan. Choponlar bir-biridan bichimi bilan farq qilgan. Ayollarning ichki ko'ylaklarining yangi ko'rinishi uchun kaltachaning yenglari kalta qilib tikilgan. Aslida, kaltacha O'zbekistonning barcha hududlarida keng tarqalgan munisak,mursak kabi ayollarning qadimiy ustki kiyimlari nomi hisoblanadi¹.

Ayollar uydan tashqarida paranjidan foydalanishgan. Bunday paranjilar keng, uzun bo'lib, chachvonga ham ega edi. Dastlabki paranjilar rangi ayollar kiyimlariga nisbatan och ranglarda bo'lib, asosan, parpasha yoki olacha nimshoyi matosidan

¹ Raxmatullayeva D. Kostyum va moda tarixi. -T.: "Niso poligraf",2017. -B.166.



International Conference on Medical Science, Medicine and Public Health

Hosted online from Jakarta, Indonesia

Website: econfséries.com

28th February, 2025

tikilgan. Paranji uchun 4,5-5 metr mato ketgan. Paranjini asosan 15 yoshdan, ya'ni qiz bola turmushga chiqishi bilan kiydirilgan.

Voha ayollarining bosh kiyimi ham turlichadir. Ro' mol, peshonaband, do'ppilar shular jumlasidandir. XIX asr oxiri- XX asr boshlarida O'rta Osiyoning boshqa hududlarida bo'lgani kabi, Buxoroda ham do'ppi va ro' mol asosiy ayollar bosh kiyimi bo'lgan. Ayollar poyabzali-mahsi, kovush, kalish kabilar ko'n yoki rezinadan (so'nggi o'rta asrlarda chetdan kirib kelgan) ishlangan. Avvallari mahsi qora echki terisidan yashil saxtiyon tovonli qilib tikilgan. Bunday pishiq mustahkam poyabzal "qayroqi" deb yuritilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Agzamova G.A. So'nggi o'rta asrlar O'rta Osiyo shaharlarida hunarmandchilik va savdo. – T.: O'zbekiston, 2000. -B.17.
2. Almardonova B., Muhiddinov M. O'zbekiston zargarlik san'ati // Moziydan sado. -2009. -№4. -B.46-48.
3. Almeeva D.E. Buxoro zargarlik san'ati // Buxoro madaniy me'rosi tarixidan. – Buxoro. -1995. -№ 3. -B.75-76.
4. Goncharova P.A. Buxoro zardo'zlik san'ati. -T.: Toshkent, 1986.
5. Davlatova S. Qashqadaryo milliy kiyimlari: an'anaviylik va zamonaviylik. -T.: "Yangi asr avlodi", 2006. -B.43.
6. Asomiddinova M. Kiyim-kechak nomlari. – T.: Fan, 1981.